



## **XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziyo ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 йил «27» август

VI-35-80-8-0-K/21

Сурхондарё вилояти ҳокимлиги

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan “Nogironligi bo'lgan, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish, shuningdek, ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 39-sun yig'ilish bayonining 20-bandi ijrosini ta'minlash haqida**

Bugungi kunda viloyatda ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan 17 nafar bolalar oilaga tarbiya (patronat)ga olinib, o'z tarbiyasiga olnagan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa puli to'lab kelinmoqda.

Shuningdek, mazkur bayon asosida Termiz shahridagi 12-sun Mehribonlik uyi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidan chiqarilib, idoraviy boshqaruva asosida Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilib, ushbu muassasada tarbiyalanuvchilarining ta'lim-tarbiya olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida 12-sun Mehribonlik uyiga Termiz davlat universiteti va Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali biriktirildi. Bundan tashqari, otaliqqa olish amaliyoti joriy etilib va bunda Chegara qo'shinlari Surxondaryo viloyati Termiz shahri 12-sun Mehribonlik uyiga mas'ul etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan “Nogironligi bo'lgan, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish, shuningdek, ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 39-sun yig'ilish bayonining 20-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 28-iyul kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan “Nogironligi bo'lgan, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish, shuningdek, ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 39-sun yig'ilish bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov):

joriy yilning 1-sentabridan oilaga tarbiya (patronat)ga olingan bolalar uchun, o'z

tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga bola 18 yoshga to‘lgunga qadar har oylik nafaqa pulini 1,2 mln. so‘mdan to‘lash bo‘yicha hisob-kitob ishlarini amalga oshirsin;

zarur bo‘lgan mablag‘ni viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi balansiga o‘tkazib bersin.

3. Viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (S.Hamidova) ajratilgan mablag‘ning amaldagi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.

4. Viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Husanov) ajratilgan mablag‘larning belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaroring ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha komissiyasi (Sh.Xolliyeva) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Кенгаш раиси**



**Bobolov T.A.**